



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 26-aprel

VI-100-55-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar hamda sektorlar rahbarlari tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar tahlili to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5633-sonli Farmoni, ijrosini ta'minlash, tuman korxonalar tashkilotlarda fuqarolar murojaatlari bilan ishlashida yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarini oldini olish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kattaqo'rg'on tumanidagi xalq qabulxonasi mudiri Z.Abdullayevning axborotini inobatga olib hamda yuqorida bayon etilganlarga asosan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 100-sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kattaqo'rg'on tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Z.Abdullayevning axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sektor rahbarlari (M.Teshayev, Sh.Xolmurzayev, A.Ochilov, A.Turg'unov)ga uy-joy kommunal, yo'l, elektr energiyasi, suv va issiqlik ta'minoti, ijtimoiy muhofazaning manzilliligi, ijtimoiy soha obyektlari, tibbiyot muassasalari, ta'lim va boshqa muassasalarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda bu boradagi mavjud muammolarni hal qilishga alohida e'tibor qaratish vazifalari topshirilsin.

3. O'zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (I.Nurmuradov)ga tumandagi "Vayrot", "Jonkel", "Qirg'iz", "Qumoq", "Mo'minxo'ja", "Mundiyon", "Nayman", "Tavaron", "Fayziken", "Yangiobod", "Bog'ot", "Yodgorxo'ja", "Javlon", "Kadan", "Mirzo Ulug'bek", "Mullako'rpa", "Mullatog'ay", "Tarnov", "Charog'on", "Cho'yanchi", "Yangiravot", "Alijon", "Balandravot", "Balandchordara", "Go'zal", "Zarqo'rg'on", "Kattako'rpa", "Kumushqirg'oq", "Qoradaryo", "Qorako'lcha", "Qushbegi", "Melixo'ja", "Olmazor", "Omonkalxat", "Polvontepa", "Saroyqo'rg'on", "Yakkabog'", "Yangiqo'rg'oncha", "Burgansoy", "Yonboshsoy", "Qoqsoy", "Qoshqo'ton", "Moybuloq", "Nisbat", "Oyjon", "Chig'atoy" mahallalarida murojaatlari ortishiga sabab bo'lganligi yuzasidan intizomiy chora ko'rish vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (M.Teshayev)ga:

-murojaatlar ortishiga sabab bo'layotgan Majburiy ijro byurosi tumani bo'limi (A.Elmuratov), tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (M.Rasulov), "Kattaqo'rg'ontumangaz" gaz

filiali (O.Qo'ldoshev) sohada olib borayotgan ishlari yuzasidan hisobotini tuman Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) va tuman hokini o'rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN  
XOLIKULOVICH